

## BIZNES ASOSLARI FANINI O'QITISH VA O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

*Imomova Go'zal Qo'chqorovna*

*Qarshi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi*

*Biznes asoslari fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Biznes asoslari fanini o'qitish va o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, o'qituvchining o'z ustida ishlashi, mas'uliyat hissi, darslarga yangiliklar kiritishi hamda darslarning qiziqarli va jonli o'tishini ta'minlash haqida.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, texnologiya, samaradorlik, ixtisoslashuv, axborot-kommunikatsiya, telekommunikatsiya.

Yangi davr bugungi o'qituvchilar zimmasiga yangi vazifalarni va bir qancha mas'uliyatlarni yuklamoqda. Zamonaviy texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan Biznes asoslari fanini o'qitish an'anasi ham sezilarli darajada o'zgardi. Hozirgi kunda iqtisodiyot va tadbirkorlik sohasi jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda, bo'lajak mutaxassislariga biznes asoslarini chuqur o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor, xususan, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruriyati Prezidentimizning ko'plab nutqlarida va qarorlarida o'z aksini topgan. Bu esa Biznes asoslari fanini o'qituvchilaridan zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ilg'or o'qitish uslublarini joriy etishni, yosh avlodni biznes yuritish ko'nikmalarini puxta egallashga tayyorlashni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim standartlarida, jumladan, mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish alohida qayd etilgan. Misol uchun, hukumatimiz qarorlari bilan tasdiqlangan ta'lim tizimini rivojlantirish dasturlarida “O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligi bolalar va yoshlarning qiziqishlari hamda intilishlarini inobatga olgan holda: televideniye, shu jumladan, mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarga biznes asoslari, tadbirkorlik va iqtisodiy savodxonlikni o'rgatishga qaratilgan dasturlarni tayyorlash va efirga uzatishni; turli korxona va tashkilotlarning faoliyati, dunyo iqtisodiyoti va texnologiyalariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop, chet el badiiy va multiplikatsion filmlarini o'zbek tilida subtitrlar bilan muntazam namoyish etishni; “ZiyoNet” tarmog'i orqali ta'lim muassasalarining xalqaro ta'lim va bilish resurslaridan foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada oshirishni, uning resurs markazini

multimedia resurslari, shaxsiy kompyuterlar va mobil qurilmalar uchun ilovalar bilan boyitishni, shuningdek, biznes va iqtisodiyotga oid o‘quv va badiiy adabiyotlarni, ixtisoslashtirilgan rasmi gazetalar va jurnallarni nashr etishni, ular uchun maxsus bo‘limlar va ilovalar tashkil etishni” [1, 2b] ta’minlash belgilangan. Shu bois, barcha Biznes asoslari fani o‘qituvchilari o‘z darslarini yanada jozibali qilish uchun texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini his etmoqdalar.

Bugungi kunda O‘zbekistonda biznes savodxonligini oshirishning ahamiyati har qachongidan ham ortib bormoqda. Bir qator biznes sohasi mutaxassislari biznes asoslarini o‘rgatishning yangi usullari va yo‘llarini joriy etmoqdalar. Bu, albatta, iqtisodiy ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Ta’limda texnologiyadan foydalanish bir qancha noyob afzalliklarni beradi. Qolaversa, bu o‘qitish tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va o‘z navbatida, o‘quvchiga zamon bilan hamnafas bo‘lishga va olg‘a intilishga yordam beradi.

Texnologiya an’anaviy o‘qitish usullarini asta-sekin almashtirmoqda. Bugungi kunda televizorda muntazam ravishda biznes asoslarini o‘qitishga yordam beradigan ko‘plab yangi dasturlar va ko‘rsatuvlar efirga uzatilmoqda.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida texnologiyadan foydalanishning yangi zamonaviy innovatsion usullari joriy etilgan. Masalan, multimedia asosida biznes asoslarini o‘rganayotgan talabalar qiziqarli materiallar orqali ham ko‘rib, ham eshitib o‘rganish orqali to‘rt ko‘nikmani (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bundan tashqari, talabalar jonli harakatlarni kuzatib, ba’zi atamalarning ma’nosini taxmin qilishlari va ularni tushunishga harakat qilishlari mumkin.

Tabiiyki, har qanday Biznes asoslari darslarida kompyuter, proyektor, elektron doska, maxsus dasturlar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini yanada rivojlantiradi, yosh avlodning biznes ko‘nikmalarini tezroq o‘rganishiga imkon beradi.

Biznes asoslari darslarida ayrim o‘qituvchilarning texnologiyalardan foydalana olmasligi va ularni samarali tatbiq eta olmasligi talabalarning zerikishiga olib keladi. Aynan shu sababdan, o‘quvchining ishtiyoqini saqlab qolish uchun, darslarda texnologiya va hech bo‘lmaganda kompyuterdan foydalanish o‘quvchining qiziqishini yanada oshirishni ta’minlaydi. Darhaqiqat, o‘quvchining yoshi, qiziqishlari, qobiliyatlari va tushunish darajasiga mos ravishda tayyorlangan o‘quv materiallari, albatta, samarali bo‘ladi. Aksincha, agar biz o‘qituvchilar o‘quv materiallarini shu talablarga asoslanib tanlamasak, agar boshlang‘ich maktab o‘quvchilari uchun murakkab atamalar bilan to‘la videofilmlar, ma’ruzalar yoki matnlarni qo‘ysak, yoki ularni multimedia yoki kompyuterlar orqali ko‘rsatsak, yoxud o‘rta va yuqori maktab yoki guruh o‘quvchilariga juda oddiy matnlarni o‘quv materiallari sifatida ko‘rsatsak,

ularning fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi asta-sekin pasayib boradi va ular darslarni tushunmay qo‘yadilar. Bu esa o‘z navbatida past baholarga va o‘qituvchining talabalar ko‘z o‘ngida hurmatini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, asosiy vazifa shunchaki darslarda texnologiyalardan foydalanish emas, balki ulardan o‘rinli foydalanish va texnologiyalardan foydalanish talaba bilimini oshirishga xizmat qilishini ta‘minlashdir. Zamonaviy kasbiy kompetensiyalar talablariga muvofiq olib boriladigan darslarda (masalan, biznes reja tuzish, tahlil qilish, taqdimot qilish, muhokama qilish) texnologiyadan samarali va o‘rinli foydalanish muhimdir. Masalan, biznes reja taqdimotlari darslarida, taqdimot materiallarini namoyish etishning o‘ziga xos qoidalari bor. Bu yerda asosiy maqsad o‘quvchining taqdimot materialini tushunishi va uni qiynalmasdan tahlil qila olishidir. Bunga erishish uchun, birinchi navbatda, taqdimotni namoyish etish uchun muhit tayyorlanishi kerak, tinglovchilar uchun tinch muhit ta‘minlanishi, o‘qituvchi audio va vizual materiallar sifati hamda kuchaytirgichlarning to‘g‘ri ishlashiga e‘tibor berishi, shuningdek, taqdimotdan oldin va keyin bajariladigan mashqlar tayyor bo‘lishi va o‘quvchilarga tarqatma materiallar berilishi kerak. Barcha talablar bajarilgach, o‘qituvchi taqdimotni namoyish etishni boshlashi mumkin. Taqdimot kamida ikki marta namoyish etilishi kerak; aks holda, o‘quvchilar mavzuni tushunmasliklari va taqdimotdan keyin bajariladigan mashqlarni to‘g‘ri bajara olmasliklari mumkin.

Xuddi shunday, biznes muloqot va yozma hujjatlar darslarida o‘quvchilarga videofilmlar va kliplarni multimediyadan foydalanib ko‘rsatish va ularni muhokama qilish texnologiya bilan o‘qitishda juda samarali usul hisoblanadi. Bunda tanish atamalar ishlatilishi kerak, agar yangi va murakkab atamalar bo‘lsa, ularga tushuntirishlar berilishi kerak. Yangi atamalarga oid mashqlar bajarilgandan so‘ng, video material ko‘rsatilishi mumkin. Bu jarayonni amalga oshirish uchun tinch, shovqinsiz muhit, qulay va toza sinf xonasi, hammaga ko‘rish imkoniyati va kuchaytirgichlarning ishlayotganligini tekshirish muhimdir. Videoni ko‘rsatishdan oldin, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan videoning mavzusi haqida gaplashishi, savol-javob sessiyalarini o‘tkazishi va faqat o‘quvchilar mavzuga chinakam qiziqish bildirganiga ishonch hosil qilgach, video materialni ko‘rsatishi kerak. Video tugagandan so‘ng, o‘qituvchi talabalarning video film haqidagi fikrlarini so‘rashi va mashqlarni bajarishi kerak. Agar bu bosqichlar to‘g‘ri amalga oshirilsa, bu darslar, albatta, o‘quvchilarning qiziqishini va bilimini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Demak, zamonaviy texnologiyalar darslarimizni boyitishda, o‘quvchilarni jalb qilishda va bilimlarini oshirishda bebaho rol o‘ynaydi. Ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olish esa muvaffaqiyatimizning asosiy garovidir.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Prezidentning PQ-1875-sonli qarori "Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". "Xalq So‘zi" gazetasi, 2-bet. 2012 yil 10 dekabr.
2. Green, J. H. "Marketing for Dummies."
3. Kotler, P., & Keller, K. L. "Marketing Management."
4. Porter, M. "Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors."
5. Osterwalder, A., & Pigneur, Y. "Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers, and Challengers."
6. Christensen, C. "The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail."